

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT
UNIVERSITETI**

“IQTISODIYOT” FAKULTETI

**IQTISODIY TADQIQOTLAR
(ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ,
“ECONOMIC RESEARCH)**

ILMIY JURNALI

3

2023

Toshkent

3
2023

Elektron ilmiy jurnal
Научный электронный журнал
Scientific digital journal

IQTISODIY TADQIQOTLAR
ELEKTRON ILMIY JURNALI

MUASSIS

Toshkent davlat
iqtisodiyot universiteti

Tahrir kengashi raisi:

Abduraxmonov Qalandar Xodjayevich – i.f.d., prof., akademik

Tahrir kengashi:

Eshov Mansur Po'latovich - i.f.d., professor
Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna – i.f.d., professor
Xudoyqulov Sadridin Karimovich – i.f.d., professor
Begalov Baxodir Abdusalovich – i.f.d., professor
Bekmurodov Adxam Sharipovich - i.f.d., professor
Vaxabov Abduraxim Vasikovich - i.f.d., professor
Maxmudov Nosir Maxmudovich - i.f.d., professor
Salimov Baxtiyor Tadjiyevich - i.f.d., professor
Mustafaqulov Sherzod Igamberdiyevich - i.f.d., professor
Jumayev Nodir Xosiyatovich - i.f.d., professor
G'ofurov Ubaydullo Vaxabovich - i.f.d., professor
Xolmo'minov Shayzaq Raxmatovich - i.f.d., professor
Amirov Lochinbek Fayzullayevich – i.f.f.d., dotsent
Xatamov Ibodullo Sadullayevich – i.f.n., dotsent
Asqarova Mavluda Turopovna – i.f.n., dotsent
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich – i.f.n., dotsent
G'ayibnazarov Sanjar Baxodirovich – i.f.n., dotsent
Kamalova Malika Nizamovna – i.f.n., dotsent
Mamaraximov Bekzod Erkinovich – i.f.n., dotsent

Tahrir hay'ati:

Begzod O'rinov – (AQSh)
Uktam Burxanov – (Chexiya)
Bozorboy Berkinov – i.f.d. (O'zbekiston)
Mark Rozenbaum (AQSh)
Volfgang Lukas (Germaniya)
N.V.Morozov (Rossiya)
Viktoriya Vdovichenko (Ukraina)
Gulyabmir Raxmani (Afg'oniston)
Axmed Muxamed Aziz Ismail (Misr)
Kaukab Azim (Saudiya Arabistoni)
Sherqul Shodmonov (Toshkent)
Rauf Salaxodjayev (Toshkent)
Axmedjon Mamatov (Toshkent)
Ju Jengron (Xitoy)
Jou Chingjiye (Xitoy)

**IQTISODIY TADQIQOTLAR
ELEKTRON ILMIY JURNALI**

**3
2023**

**Elektron ilmiy jurnal
Научный электронный журнал
Scientific digital journal**

Bosh muharrir:

Eshov M.P.- i.f.d., prof.

Adabiy muharrir

Xajiyev B.D.- i.f.n., dots.

Bosh muharrir o'rinbosari

Amirov L.F. - PhD

Musahhih:

Jurnal sahifalarida chop etilgan materiallardan foydala-nilganda "Iqtisodiy tadqiqotlar" elektron ilmiy jurnalidan olindi deb ko'rsatilishi shart.

Tahririyat taqdim etilgan maqolalarni taqriz qilish va qaytarish majburiyatini olmagan. Maqolada keltirilgan dalillar va ma'lumotlar uchun muallif javobgar.

Veb-sayt manzili: <https://economicresearch.tsue.uz>

E-mail: economicresearchjournal@gmail.com

MUNDARIJA

IQTISODIYOT, INNOVASIYA VA TADBIRKORLIK NAZARIYA VA AMALIYOT

Shadmanov E.Sh., Maxsadov M.O.	Improvement of methodology of accounting and analysis of included financial statements and investments in subsidiary societies
Irgashev D.I. Muxtarov Sh.Sh.	Aksiyadorlik jamiyatlari foydasini optimal taqsimlashda dividend siyosatini takomillashtirish yo‘llari
Abdurakhman M.A. Abdurakhim A.B. Elnoza A.K.	Analysis of international experience in assessing the efficiency of bim technologies in construction

BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISH: MAKROIQTISODIY YONDOSHUV

Usmanova R.M.	Makroiqtisodiy darajada ta’lim xizmatlari bozorining rivojlanish yo‘nalishlari
---------------	--

INSON RESURLARINI BOSHQARISH, IJTIMOIIY SIYOSAT VA BANDLIK

Mamaraximov B. E.	Ishchi kuchini takror ishlab chiqarishda bandlik xizmati muassasalarining ahamiyati
Azizbek Ismoilov	Aholi bandligi va uni tartibga solish nazariyalari tahlilining uslubiy asoslari

TARMOQLAR IQTISODIYOTI VA REAL SEKTORNI KOMPLEKS RIVOJLANTIRISH

Gafurov Anvar	Oliy ta’lim muassasalarini boshqaruvini takomillashtirish islohotlari
Усманова С.С.	Тенденции развития фармацевтической промышленности республики узбекистан
Нигматова Д Адилов Б	Финансовые отношения – в мире бизнеса
Usmonov Sh. Sh.	“Yashil” iqtisodiyotda quyosh energiyasining o‘rni va undan foydalanish masalalari

Egamberdiyev M

Роль социального сельского хозяйства в условиях
модернизации экономики. (на примере опыта
республики чехия)

AHOLI BANDLIGI VA UNI TARTIBGA SOLISH NAZARIYALARI TAHLILINING USLUBIY ASOSLARI

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ АНАЛИЗА ЗАНЯТОСТИ НАСЕЛЕНИЯ И ТЕОРИИ ЕЕ РЕГУЛИРОВАНИЯ

METHODOLOGICAL PRINCIPLES OF THE ANALYSIS OF POPULATION EMPLOYMENT AND THEORIES OF ITS REGULATION

Azizbek Ismoilov
Alfraganus Universiteti
Iqtisodiyot kafedrası dotsent v.b.

Annotatsiya: Ushbu maqolada aholi bandligiga ijtimoiy-iqtisodiy tushuncha sifatida qaraladi. Aholi bandligi iqtisodiy tushuncha sifatida aholining iqtisodiy faol qismini ishlab chiqarish vositalari bilan birlashtirish amalga oshadigan, bevosita mehnatni amalga oshirish jarayonida tadqiq etiladi. Aholi bandligi ijtimoiy ishlab chiqarishga xos xususiyat bo'lib, unda mehnat buyumlarini o'zgartirish bo'yicha ma'lum bir sifatlariga ega bo'lgan ishchilarning birgalikdagi faoliyati amalga oshadi.

Kalit so'zlar: Bandlik, ijtimoiy, mamlakat, aholi, iqtisodiyot, mehnat.

Аннотация: В этой статье занятость рассматривается как социально-экономическая концепция. Занятость населения как экономическое понятие исследуется в процессе осуществления непосредственного труда, при котором происходит объединение экономически активной части населения со средствами производства. Занятость населения-характеристика общественного производства, при которой осуществляется совместная деятельность работников, обладающих определенными качествами по изменению предметов труда.

Ключевые слова: Занятость, социальная сфера, страна, население, экономика, труд.

Annotation: In this article, employment is considered as a socio-economic concept. Employment of the population as an economic concept is studied in the process of direct labor, in which the economically active part of the population is combined with the means of production. Employment of the population is a characteristic of social production, in which the joint activity of workers with certain qualities to change the objects of labor is carried out.

Key words: Employment, social sphere, country, population, economy, labor.

KIRISH

Jahonda davom etayotgan COVID-19 pandemiyasi mamlakatlar iqtisodiyoti va mehnat bozoriga ham o'zining ta'sirini ko'rsatmoqda. Jumladan, mamlakatlarda hududlar o'rtasida turli cheklovlarni joriy etish, fitosanitar tadbirlarni kuchaytirish jahon bozorida xom ashyo mahsulotlariga bo'lgan talabning kamayishiga, tashqi savdo sohalari qisqarishi va ishsizlik darajasining ortishiga olib keldi¹¹.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev aholi bandligi va daromadlarini oshirishga har tomonlama ko'maklashish, ishsizlar, ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlar, mehnat bozoriga ilk bor kirib kelayotgan bitiruvchilar bandligini ta'minlash bo'yicha yangi ta'sirchan mexanizmlarni joriy etish, ehtiyojmand aholini mehnat faoliyatiga jalb qilishda qulay shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, yangi ish o'rinlarini tashkil etgan tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini yanada rag'batlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni izchil amalga oshirishning muhim ahamiyatini ko'rsatib, "O'g'il-qizlarimizni mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan zamonaviy kasb-hunarlariga o'rgatish, ularda tadbirkorlik ko'nikmalari va mehnatsevarlik fazilatlarini shakllantirish hamda tashabbuslarini ro'yobga chiqarish, ish va uy-joy bilan ta'minlashga ustuvor ahamiyat qaratamiz", deb ta'kidladilar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqola ma'lumotlari turli xil davlat vazirliklari va idoralaridan olingan ikkilamchi ma'lumotlar, shuningdek, statistik hisobot va hujjatlar tahliliga asoslanadi. Ma'lumotlar tahlili seminarlar, fokus-guruh muhokamalari va ish beruvchilar bilan ekspert so'rovnomalar asosida to'ldirildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

S.V.Andreev aholi bandligini bevosita ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'lab, uni asosiy shartlardan biri sifatida tavsiflaydi. Muallif aholi bandligi mazmunining quyidagi bir qancha jihatlarini ajratadi:

A.E.Kotlyar fikricha, bandlik jamiyatning barcha formatsiyalarida amal qiladigan umumiy iqtisodiy tushuncha sifatida qabul qilingan. Bu ijtimoiy takror ishlab chiqarishga xos tushuncha mehnat va ishchi kuchidan foydalanish bilan bog'liq bo'lib, iqtisodiy faol aholini ishlab chiqarish omillariga nisbatan

¹¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 29 декабрдаги "Олий Мажлисга Мурожаатномаси.// www.president.uz.

tavsiflaydi hamda ularning aniq mehnat kooperatsiyasidagi ishtiroki yuzasidan kishilar o'rtasida sodir bo'ladigan munosabatlarini shakllantiradi.¹²

L.A.Kostin aholi bandligini umumiy iqtisodiy tushuncha sifatida barcha iqtisodiy formatsiyalarga xos ekanligini e'tirof etadi hamda unga ishchining u yoki bu aniq mehnat kooperatsiyasiga qo'shilishi bilan belgilangan kishilar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar sifatida ta'rif beradi.¹³

- ishchining ma'lum bir faoliyat sohasiga biriktirib qo'yilishi;

- ishchining yaratayotgan ne'matlari va xizmatlari uchun moddiy rag'batlantirilishi;

N.A.Volgin va V.S.Bulanovlar tomonidan esa aholi bandligi ijtimoiy-iqtisodiy tushuncha sifatida tavsiflanadi. Mualliflar fikricha, aholi bandligi ijtimoiy mazmun bilan, ya'ni aholining mehnat faoliyatida qatnashishi yuzasidan sodir bo'ladigan munosabatlar majmui hamda ishchilarning xususiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish darajasi bilan bog'langan bo'lib, ushbu munosabatlar majmui fuqarolarning shaxsiy ehtiyojlarini qondirish va daromadlar olishini ta'minlashi kerak.¹⁴

S.V.Andreev aholi bandligini bevosita ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'lab, uni asosiy shartlardan biri sifatida tavsiflaydi. Muallif aholi bandligi mazmunining quyidagi bir qancha jihatlarini ajratadi:

- ishchining ma'lum bir faoliyat sohasiga biriktirib qo'yilishi;

- ishchining yaratayotgan ne'matlari va xizmatlari uchun moddiy rag'batlantirilishi;

ishlab chiqarish jarayonini tashkil qilish ishchining ishlab chiqarish vositalari bilan birikishi zaruratini belgilashi.¹⁵

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga, jumladan, "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida"gi qonunining 2-moddasiga tayanib, "aholi bandligi" tushunchasi fuqarolarning ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq faoliyatini bildirib, ular mehnat haqi va daromad keltira oladigan faoliyatga zid kelmaydi.

Aholi bandligining yuqorida ko'rsatilgan ta'rifi ushbu tushunchaning quyidagi xususiyatlarini farqlash imkonini beradi:

¹² Костин Л.А., Зущина Г.М., Султанова Р.М. Рынок труда и теория занятости: учеб.пос. М.: АТиСО, 1997, 424 с.

¹³ Буланов В.С., Волгин П.А. Рынок труда. М.: Экзамен, 2003 г. 478 с.

¹⁴ Буланов В.С., Волгин П.А. Рынок труда. М.: Экзамен, 2003 г. 478 с.


¹⁵ Андреев С.В. Кадровый потенциал и проблемы занятости в условиях перехода России к рыночным отношениям. М.: Институт социологии. РАН, 2010 г. 184 с.

1. Aholi bandligining iqtisodiy tushuncha sifatidagi mazmunini;
2. Aholi bandligi jamiyat ishchi kuchining shakllanishini ifodalaydi;
3. Ishlab chiqarilgan moddiy ne'matlar va xizmatlar uchun ishchilar ma'lum miqdorda mehnat mukofoti oladilar;
4. Fuqarolarning shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan belgilangan faoliyat.

“Aholi bandligi” tushunchasi, fikrimizcha, davlat va uning fuqarolari tomonidan, ya'ni aholining ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojlarini qondirish zarurati bilan belgilangan sub'ektlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar alohida shaklida ifodalangan iqtisodiy tushunchani mujassamlashtirgan bo'lib, ular davlat huquqi doiralari orqali bog'langan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Aholi bandligi va uni tartibga solish nazariyalari tahlilining uslubiy asoslarini klassik, neoklassik, keynscha, neokeynscha, institutsional, monetaristik, neokonservativ kabi ilmiy yo'nalishlar vakillarining ilmiy g'oyalari tashkil etadi.



1-rasm. Aholi bandligi kontsepsiyalari¹⁶

tadqiqotlar mehnat bozorining XXI asr boshlaridagi amal qilish xususiyatlarini aniqlash uchun zarur hisoblanadi. Aholi bandligi va mehnat bozori kontsepsiyalari evolyutsion rivojlanishning uzoq yo'lini bosib o'tdi. Ilk bor aholi bandligi va ishsizlik muammolari A.Smit, D.Rikardo, J.B.Sey va K.Marks nazariyasini mujassamlashtiradigan klassik ilmiy maktab vakillari tomonidan tadqiq etilgan (1-rasm).

Aholi bandligi klassik modelidagi bozor mexanizmi 1-rasm dagi chizmada tasvirlangan (tekis chiziqda ijobiy aloqa belgilangan, shtrix-punktirli chiziqda salbiy). Ushbu mehnat bozorining muhim unsurlari quyidagilar hisoblanadi: ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklif, ish haqi, bozor kon'yunkturasi, ishsizlik. Aholi bandligining klassik modelida davlat tomonidan bozorni tartibga solish

¹⁶ Muallifning ishlanmasi

amaliyoti mavjud emas. U o'zini-o'zi tartibga soluvchi bozor tamoyiliga va "iqtisodiy inson" tushunchasiga asoslanadi. Ishchi kuchining narxi bozor kon'yunkturasiga egiluvchan moslashadi.

Ushbu yo'nalish erkin raqobat va bozor – iqtisodiyotning tartibga soluvchilari ekanligini ko'zda tutadi. A.Smit, D.Rikardo, J.B.Sey yondoshuvlarida bandlikka tadbiquan ushbu bozorning muvozanatlashganligini, ya'ni talab va taklif tengligi hamda to'liq bandlik ta'minlanganligini bildiradi.

A.Smitning izdoshlari D.Rikardo va J.B. Sey boylikning tejamkorlik asosida ko'payishini ta'kidlaydilar. Shuningdek, ko'p jamg'arish ishsizlikni ko'paytirish, ish haqini qisqartirish, tadbirkorlik faolligini susaytirish orqali jamiyatni kambag'allashtirishi isbotlandi (D.J.M.Keyns). Ishlab chiqarish omillari bozorini tahlil qilishda J.B.Sey ishchi kuchi egasiga ish haqi ko'rinishida daromad keltiradigan va qiymat yaratishda qatnashadigan mehnatni alohida resurs sifatida o'rgandi. U ortiqcha tovar ishlab chiqarishda mehnat va kapitalning bir qismini ishlab chiqarishdan chiqarib olinadi va ushbu tovarlarga bo'lgan talabning jahon bozoriga chiqishi to'liq bandlikning yangitdan o'rnatilishiga olib keladi, deb ta'kidlaydi.

Hududlar kesimida ro'yxatdan o'tgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni dehqon va fermer xo'jaliklarisiz, 1 yanvar holatiga ko'ra, birlikda **1-jadval**:

Hududlar	22018	22019	22020	2021	2022	2023
O'zbekiston Respublikasi	242379	276237	353921	436981	488936	555971
Qoraqalpog'iston Respublikasi	11076	12364	15050	18923	21048	24006
Andijon	21631	23978	28880	35795	38057	42166
Buxoro	13495	15700	20982	26097	29538	32155
Jizzax	10069	11845	14769	18661	20684	24251
Qashqadaryo	14969	16752	20921	26088	32584	38985
Navoiy	7788	9143	15511	19058	21260	23997
Namangan	16928	17944	22034	27314	29982	33598
Samarqand	17261	20669	27322	35022	43130	51025
Surxondaryo	10897	11670	15783	22670	25772	28925
Sirdaryo	8064	8947	11697	14256	14881	16208
Toshkent	25128	29390	38006	45935	48294	53961
Farg'ona	20502	23542	29599	37199	42022	49032
Xorazm	11345	12576	16282	20177	23324	27507
Toshkent sh.	53226	61717	77085	89786	98360	110155

Manba: Stat.uz saytidan olingan <https://stat.uz/>.

Mehnat bozori muammolari neoklassik maktab iqtisodchilari A.Marshall, A.Pigu, Dj.B.Klark va boshqalarning asarlarida yanada chuqurroq tadqiq etiladi. Ushbu modelda bozorning o'z-o'zini tartibga solishi ish haqini oshirish yoki pasaytirish vositasida ish haqini mehnat bozorining tashqi tartibga solish dastagiga aylantiradi.

Mehnat jarayonida band ishlovchilar soni qanchalik ko'p bo'lsa, mehnat unumdorligi va ish haqi miqdori shunchalik past bo'ladi. A.Pigu inqiroz sharoitida bandlikning o'sishi mexanizmi sifatida real daromad o'sishi zarur, deb ko'rsatdi. A.Piguning fikricha, ishsizlikning vujudga kelish sababi ish haqining yuqori darajasidir, ish haqining kamayishi esa aksincha, bandlikni oshiradi. Chunki ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi va qo'shimcha ishchilarni yollash uchun imkoniyat yaratadi. Uning fikricha, ishlab chiqarish xarajatlarining kamayishi asosida tovarlar narxining pasayishi ish haqi hisobiga tirikchilik o'tkazmaydigan aholi guruhlari xarid qobiliyatining oshishiga olib keladi. Ushbu g'oya qo'shimcha talabni vujudga keltiradi hamda ishlab chiqarish va bandlikni kengaytiradi. A.Piguning fikricha, bandlik hajmini belgilovchi omil mehnatga bo'lgan haqiqiy talab funktsiyasidir. A.Pigu "ixtiyoriy ishsizlik" nazariyasi tarafdori bo'lib, u ishchilar bozordagi talab va taklif natijasida vujudga keladigan "normal" ish haqi uchun ishlashga rozi bo'lmaydilar va ixtiyoriy ishsiz bo'lib qoladilar, degan fikrni ilgari suradi.

Aholi bandligini tartibga solishning keynscha nazariyasi klassik va neoklassik maktablarning g'oyalarini inkor etishga asoslangan

Aholi bandligining keynscha modelida mehnat bozori inertlashgan tizim hisoblanadi, ishchi kuchining bahosi qattiq determinantlashgan va bozor kon'yunkturasiga moslashmaydi. Mehnat bozori kon'yunkturasi samarali yalpi talab ("Keynsning tartibga solinadigan kapitalizm nazariyasiga ko'ra, davlatning makroiqtisodiy jarayonlarga aralashuvi") ga asoslangan.

Keynsning ish bilan bandlik konsepsiyasi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi multiplikativ aloqalarga, "jamiyatning asosiy psixologik qonuni" ga asoslanadi. Keyns mehnatga bo'lgan talabning cheklanganligi oqibatida "majburiy ishsizlik" tushunchasini kiritadi hamda mehnat bozorining o'zini-o'zi tartibga solishi, foiz stavkasining avtomatik o'zgarishi, narxlar va ish haqi egiluvchanligi to'g'risidagi klassiklarning g'oyalarini inkor etadi. Ishsizlikning asosiy sababi Keyns bo'yicha samarali yalpi talabning etishmasligidan iborat. Milliy xo'jalikdagi bandlik darajasini tartibga solish samarali talab dinamikasiga, ya'ni kutilayotgan istemolchilik va investision sarflarga bog'liqdir. Uning psixologik qonuni jamg'arishga nisbatan, ko'proq iste'mol qilish (yalpi talabning o'sishi) zaruratini ifodalaydi. Aholi bandligini

tartibga solish nazariyasida DJ.M.Keyns¹⁷ samarali talab va yangi investitsiyalarni ragʻbatlantiradigan darajadagi davlat byudjet, kredit-pul, soliq siyosatlariga asoslangan iqtisodiy muvozanatni tiklash mexanizmining tahlilini beradi.

Keynschilarning fikricha, kapitalistik bozor xoʻjaligida toʻliq bandlikni kafolatlaydigan mexanizm yoʻq, ishsizlik va inflyatsiyaning sabablari iqtisodiy tizimning ichida yashiringan boʻlib, u oʻz-oʻzidan tartibga solinmaydi. Keyns hisob-kitoblariga koʻra, korxona egalarining talabi (N), yaʼni mehnat xarajatlarining hajmi jamiyatning isteʼmolga qiladigan xarajatlariga (D1) va yangi investitsiyalarga sarflanadigan xarajatlarga (D2) bogʻliq boʻladi. $D1+D2$ – samarali talab, aholining bandligi esa samarali talab funksiyasidir.

Neokeynscha nazariya R.Xarroddan, E.Xansen, Dj.R.Xiks va boshqalarning ilmiy ishlarida bayon etilgan. R.Xarroddan fikricha, bandlik hajmi investitsiyalar hajmi va multiklikator bilan belgilanadi. Multiklikator miqdori esa jamgʻarishga boʻlgan moyillik bilan belgilanadi. E.Xansen hukumatning mintaqadagi birinchi darajali vazifalari sifatida bandlikni davlat tomonidan tartibga solish zaruratini bayon qildi.

Ortodoks keynschilarning mehnat bozorida bandlikni tartibga solish modeli neoklassik nazariya bilan juda oʻxshash. Undagi muvozanat mehnatga boʻlgan talab va taklifni tenglashtiradigan real ish haqi darajasida oʻrnatiladi. Ushbu model iqtisodiy adabiyotda toʻliq bandlikka erishish imkonini bermaydigan uch vaziyatni ifodalovchi Xiks-Xansen modeli nomini oldi. Bu “vaziyatlar” birinchidan, ish haqining egiluvchan emasligi; ikkinchidan, (DJ.R.Xiksning “likvidlik tuzogʻi”ni) foiz stavkasining pasayishiga taʼsir koʻrsatmaydigan pulga boʻlgan chayqovchilik talabi; uchinchidan, yalpi jamgʻarish hajmini qoplash uchun zarur boʻlgan investitsion sarflar darajasini oʻz ichiga oladi.

Aholi bandligining institutsional –sotsiologik modeliga koʻra, mehnat bozori institutsional omillarga bogʻliq. Institutsionalistlar makroiqtisodiy tahlildan voz kechadilar, mehnatga boʻlgan talab va mehnat taklifi oʻrtasidagi nomuvofiqlikning sababi ishchi kuchi tarkibidagi (ijtimoiy, kasbiy, etnik va h.k) tafovutlarda, mehnat bozorining regulatori – institutsional islohotlar, deb hisoblaydilar.

Aholi bandligining shartnomaviy modeliga asosan, (neoklassik va keynscha kontseptsiyalar sintezi) mehnat bozori inertlashgan, yaxlit, bir jinsli boʻlmagan va dinamik aloqalar tizimi hisoblanadi. Aholi bandligi shartnomaviy modelining mualliflari Keynsning ish haqi “qatʼiyligi” qoidasini qoʻllagan holda mehnat

¹⁷ Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег. / Дж.М. Кейнс. М: Прогресс, 1978.-494с.

bozoridagi muvozanatga ishlab chiqarishning jismoniy hajmlari va bandlikni o'zgartirish vositasida erishiladi, deb hisoblaydilar.

Neokeynscha nazariya R.Xarrod, E.Xansen, Dj.R.Xiks va boshqalarning ilmiy ishlarida bayon etilgan. R.Xarrodning fikricha, bandlik hajmi investisiyalar hajmi va multiklikator bilan belgilanadi¹⁸. Multiklikator miqdori esa jamg'arishga bo'lgan moyillik bilan belgilanadi.

Ortodoksal keynschilarning mehnat bozorida bandlikni tartibga solish modeli neoklassik nazariya bilan juda o'xshash. Undagi muvozanat mehnatga bo'lgan talab va taklifni tenglashtiradigan real ish haqi darajasida o'rnatiladi. Ushbu model iqtisodiy adabiyotda to'liq bandlilikka erishish imkonini bermaydigan uch vaziyatni ifodalovchi Xiks-Xansen modeli nomini oldi. Bu "vaziyatlar" birinchidan, ish haqining egiluvchan emasligi; ikkinchidan, (DJ.R.Xiksning "likvidlilik tuzog'i"ni) foiz stavkasining pasayishiga ta'sir ko'rsatmaydigan pulga bo'lgan chayqovchilik talabi; uchinchidan, yalpi jamg'arish hajmini qoplash uchun zarur bo'lgan investision sarflar darajasini o'z ichiga oladi.

XULOSA

Bandlikni tartibga solish kontseptsiyalarining retrospektiv tahlili mintaqada aholi bandligini tartibga solish jarayonidagi ko'plab xatolar va salbiy holatlarning oldini olishda jahondagi xorij tajribasidan foydalanish imkonini beradi. Fikrimizcha, bozorning rivojlanishi sharoitida bandlikni tartibga solish kontseptsiyalarini tanlashda neokeynschilar, neoinstitutsional va neokonservativ yo'nalishlarning ratsional qoidalarini qo'llash, maqsadga muvofiq. Ushbu kontseptsiyalar, birinchidan, aholi bandligini davlat tomonidan tartibga solish zarurligini ko'zda tutadi; ikkinchidan, mamlakat va uning mintaqalari iqtisodiy o'sish modelini shakllantirishni taqozo etadi; uchinchidan, mintaqada aholining muvozanatlashgan va samarali bandligiga erishishda to'plangan ijobiy tajribadan foydalanish imkoniyatini beradi.

Bandlikka bag'ishlangan yuqorida qayd etilgan kontseptsiyalarning rivojlangan mamlakatlar amaliyotida qo'llanilishi tahlili ko'rsatishicha, xizmat ko'rsatish sohasidagi bandlikning o'sishi va umumiy ishchilar sonida surunkali ishsizlik ulushining qisqarishi "mehnatni tejashdan foydalanishning ustuvor shakli bo'lib chiqmoqda"¹⁹.

Har bir mamlakatda bandlikni tartibga solishda mamlakatdagi real iqtisodiy shart-sharoitlar va demografik vaziyat to'liq hisobga olinishi kerak. Aks holda

¹⁸ История экономических учений: (современный этап) : Учебник/ Под общ.ред. Худокормова А.Г.-М: Инфра. М. 1998.

¹⁹ Золотов А.В. О роли рабочего класса в современной экономике. //Вестник нижегородского университета им. Н.И.Лобачевского. Серия: Экономика и финансы. 2004. №2. С.545.

ishsizlik, bandlik darajasining pasayishi, mintaqaviy nomutanosibliklarning kuchayishi kabi mehnat salohiyatidan foydalanish bilan bog'liq muammolar yuzaga chiqadi. Mehnat bozori holatiga me'yoriy hujjatlar va hukumat xatti-harakatlari bilan birgalikda, davlat iqtisodiy siyosatini amalga oshirishning dastaklari ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 dekabrda "Oliy Majlisga Murojaatnomasi."// www.president.uz.
2. Волгин Н.А. Социальная политика: учебник/под общ.ред. Н.А.Волгина М.: Изд-во «Экзамен», 2002 г. 736
3. Костин Л.А., Зущина Г.М., Султанова Р.М. Рынок труда и теория занятости: учеб.пос. М.: АТиСО, 1997, 424 с.
4. Волгин П.А. Рынок труда. М.: Экзамен, 2003 г. 478 с.
5. Андреев С.В. Кадровый потенциал и проблемы занятости в условиях перехода России к рыночным отношениям. М.: Институт социологии. РАН, 2010 г. 184 с.
6. Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег. / Дж.М. Кейнс. М: Прогресс, 1978.-494с.
7. История экономических учений: (современный этап): Учебник/ Под общ.ред. Худокормова А.Г.-М: Инфра. М. 1998.
8. Золотов А.В. О роли рабочего класса в современной экономике. //Вестник нижегородского университета им. Н.И.Лобачевского. Серия: Экономика и финансы. 2004. №2. С.545.
9. <https://stat.uz/>

Iqtisodiy tadqiqotlar

ILMIY JURNALI

Tahririyat manzili:
100003, Toshkent sh., Chilonzor tumani, I. Karimov ko'chasi 49-uy
Telefonlar *****